

## FAVQULODDA VAZIYATLARDA RUHIY-STRESSGA TUSHGAN INSONLARGA YORDAM KO‘RSATISH USULLARI

**Boymirzaev Abdusattor Egamshukurovich**  
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi  
Fuqaro muhofazasi instituti kafedra dotsenti

**Razzaqov Hasanboy Mirzaevich**  
Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi FVDTvaFM  
tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i

**Annotatsiya:** Bugungi kunda jamiyatimiz, ilm-fan, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning paydo bo‘lishi, bir tomondan hayot sifatini yaxshilasa, ikkinchi tomondan keng ko‘lamli ofat va falokatlar (favqulodda vaziyatlar) xavfini oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** psixosomatik, qo‘rquv, aybdorlik xissi, g‘azab, favqulod, stress

**Abstract:** Today, our society, the development of science and mass media, the emergence of new techniques and technologies, on the one hand, improve the quality of life, and on the other hand, increase the risk of large-scale disasters and catastrophes (emergency situations).

**Key words:** psychosomatic, fear, guilt, anger, emergency, stress

**Аннотация:** Сегодня наше общество, развитие науки и средств массовой информации, появление новой техники и технологий, с одной стороны, улучшают качество жизни, а с другой стороны, увеличивают риск крупномасштабных катастроф и катастроф. (аварийные ситуации).

**Ключевые слова:** психосоматика, страх, вина, гнев, чрезвычайная ситуация, стресс.

Mutaxassislar V.A.Kazakovsev va M.M.Androchnikovlar ta’kidlashicha, texnogen falokatlar muammosi, bu umumiy falokatlar sonining 70% dan ortig‘ini tashkil etadi, so‘nggi yillarda ko‘plab qurbonlar tufayli ayniqsa keskinlashgan [1,9]. Shuningdek, mutaxassis Kekelidze.Z.I. 2020 yilga kelib ruxiy kasalliklar soni aholining kasallanish strukturasi ikkinchi o‘rinni egallaydi, deb hisoblaydi [2,12]. Bundan tashqari, Zvezdin.A.V., Boyko.Yu.R. va boshqalarning fikricha Favqulodda vaziyatlarda ruxiy buzilishlar muammosi ham tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Tabiiy ofat paytida turli ruxiy kasalliklar aholining 70% dan ortig‘iga ta’sir qilishi mumkin [3,13].

Ruhiy-stress omillarining tabiati, ularning ta’sirining davomiyligi va dinamikasi, yuzaga keladigan buzilishlarning o‘ziga xos xususiyatlari ijtimoiy stress buzilishlarini stressga o‘tkir reaksiyalar va travmadan keyingi stress kasalliklaridan ajratib turadi. Bir vaqtning o‘zida harakat qiladigan, murakkab psixologik hodisalarni birlashtirgan holda, bu buzilishlar va reaksiyalar favqulodda vaziyatning eng muhim belgilaridir [4]. Mutaxassis Isaev.A.V.ning tadqiqotlarida ruxiy kasalliklar favqulodda vaziyatlar qurbonlarining ko‘p qismida kuzatililishi, ular ko‘pincha o‘ta og‘irligi va terapiyaga chidamliligi bilan farqlanishi o‘rganilgan [4].

Aksariyat tadqiqotchilar ruhiy-stress holatidagi insonlar holatini yuzaga kelgan

favqulodda vaziyat ko‘lami, davomiyligi, tasodifiyligi, bosqichi, iqlim va meteorologik xususiyatlariga bog‘liqligini qayd etadilar. Bir qator tadqiqotchilar favqulodda vaziyatlarning psixogen oqibatlarini bashorat qilishda ijtimoiy-psixologik omillarning muhimligini ta’kidlaydilar, masalan, jabrlangan aholining jinsi, yoshi va etnik xususiyatlari, favqulodda vaziyatlarda ishtirok etish darajasi (talofat ko‘rgan, jabrlanganlar guruhleri), somatik va ruxiy salomatlik holati hamda mahalliy xokimiyat organlariga ishonch darajasi va boshqalar. Favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishda turli xizmatlarning harakatlarini tashkil etish va hamkorlik darajasi, vaziyat ishtirokchilari tomonidan holatni nazorat qila olishiga ishonchi, qutqaruv ishlarining axborot vositalarida yoritilishi, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etganlarning talofat ko‘rgan, jabrlanganlar guruhleri bilan o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari favqulodda vaziyatning psixogen oqibatlarining tarqalishi va og‘ir kechishiga ta’sir qiluvchi omillarning uchinchi guruhiga kiradi [5,7,8].

Ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko‘rsatishning maqsadlari, ruxiy va psixofiziologik ahvolni saqlash va yangi paydo bo‘lgan (inqirozli vaziyat natijasida) salbiy hissiy tashvishlar (masalan, qo‘rquv, aybdorlik xissi, g‘azab, nochorlik va boshqalar) bilan ishlashga qaratilgan. Ushbu maqsadlarga erishish, jabrlanuvchilarda turli salbiy oqibatlarni kechishi (psixosomatik muammolar, travmadan keyingi stress va boshqalar) ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Ruhiiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko‘rsatishda qo‘llaniladigan usullarga kelsak, ular vaziyat talablariga mos kelishi kerak. Favqulodda vaziyatlar sharoitida ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha psixologlarning ko‘p yillik tajribasi taxlil qilinganda, favqulodda vaziyat sharoitida ishlovchi psixologik xizmat mutaxassislari faoliyatining universal tashkiliy sxemasini ishlab chiqish imkonini beradi [9]. Buning uchun quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

1. Favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan psixologik vaziyat haqida ma’lumot to‘plash. Ba’zi hollarda, bu ma’lumotni voqea joyida ishlayotgan psixologlar yoki boshqa mutaxassislardan ham olish mumkin. Biroq ba’zi holatlarda bunday ma’lumotlarni olish imkoni yo‘qligi sababli, ularni mustaqil ravishda ham to‘plashga to‘g‘ri keladi.

2. Har bir mutaxassisning ish joyi va tartibini aniqlash. Har bir mutaxassisning muayyan bir hududdagi vazifalarini belgilash juda muhimdir. Yordamning samaradorligi ko‘pincha mazkur vazifaning muvofaqiyatiga bog‘liq.

3. Taxminiy ish rejasini tuzish. Ushbu masalani hal qilish birinchi, tayyorgarlik bosqichida amalga oshiriladi, ammo ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordamning butun davri davomida ushbu reja o‘zgaruvchan sharoitlariga qarab o‘zgarishi va tuzatilishi mumkin.

**Asosiy bosqich.** Ruhiiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko‘rsatishning asosiy bosqichida psixologlar faoliyatining ikkita asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ulardan birinchisi, kasbiy faoliyatning shart-sharoitlarini ta’minlashga qaratilgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarga yordam berishdir. Ikkinchisi - favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish. Psixologlar faoliyatining mazmuni har xil bo‘lishi mumkin, u tayyorgarlik bosqichida aniqlanadi va ish rejasida aks ettiriladi. Ushbu tarkib vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liqdir.

**Yakuniy bosqich.** Ruhiiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha ishning yakuniy bosqichida quyidagi vazifalar hal qilinishi lozim:

1. Yordamga muxtoj bo‘lgan odamlarga yordam berishga qaratilgan mutaxassis - psixologlarning ishi qoidaga ko‘ra, yakuniy bosqichda favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlar soni kam bo‘lsada, ammo psixologik yordamga muxtoj bo‘lganlar etarli.

2. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etuvchi mutaxassislariga psixologik yordam ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlar. Bunday chora-tadbirlarni ushbu bosqichda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish, ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko‘rsatish va boshqa bu kabi ishlarning intensivligi pasayadi. Ammo, mazkur tadbirlarda ishtirok etuvchi va yordam ko‘rsatuvchi mutaxassislarning charchoq holatini ortishiga sabab bo‘ladi.

3. Ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha ish jarayonida olingan ma‘lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish.

4. Ma‘lumotlarni umumlashtirish va taxlil qilish asosida vaziyatning rivojlanishi prognozini tuzish.

Favqulodda vaziyatlarda psixologning ish sharoitlarining o‘ziga xos xususiyati kasbiy tamoyillar va axloqiy me‘yorlarning ma‘lum bir o‘zgarishini belgilaydi. Albatta, bunday vaziyatda psixologning ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko‘rsatish uchun qabul qilingan umumiy tamoyillar bilan tartibga solinadi. Shunday bo‘lsada, ekstremal vaziyatda ushbu tamoyillar yordam ko‘rsatish shartlarining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq o‘ziga xoslik kasb etadi. **Favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan hududga etib kelgan mutaxassislar quyidagi tadbirlarni amalga oshiradilar:**

- Mahalliy xokimiyat organlari bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil
- etish;
- Jabrlanganlar sonini taxminiy aniqlash;
- Hududiy boshqaruv organlari, kasalxonalar, o‘likxonalar, maktablar va boshqalarning manzili, raxbariyati va telefon raqamlari haqida ma‘lumot to‘plash;
- “Ishonch telefoni”ni tashkil etish va uni axborot bilan ta‘minlash;
- Jabrlanganlar va ularning qarindoshlari yig‘iladigan joyini aniqlash;
- Jabrlanganlar va ularning qarindoshlariga statsionar yordam ko‘rsatish joyini belgilash;
- Jabrlanganlar va ularning qarindoshlariga ma‘lumotlarni etkazish davriyligini belgilash;
- Jalb etiladigan psixolog va shifokorlarning sonini belgilash;
- Navbatchilikga jalb etiladigan va zaxiradagi xodimlarning smenasini davomiyligini belgilash;
- Kundalik o‘tkaziladigan yo‘riqnomalar vaqtini belgilash;
- Ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish uchun mas‘ullarni belgilash;
- Ish hududini sektorlarga bo‘lish va ularga mutaxassislarni taqsimlash.

Bugungi tahlikali zamonda tabiiy va texnogen, jumladan, oziq-ovqat, kommunikatsiya xavfsizligi va turli qurolli to‘qnashuvlar natijasida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar soni doimiy ravishda ortib bormoqda. Yer yuzida texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, turli xavfli hodisalar, ishlab chiqarishdagi jarohatlar darajasining ko‘tarilib borishi, inson hayoti va sog‘lig‘iga atrof - muhitning salbiy ta‘siri natijasida jiddiy oqibatlarga olib kelayotgan hodisalar tez -tez uchramoqda. Favqulodda vaziyatlarda insonlarning ruhiy-stress holatiga tushishlari muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda..

Ayni paytda mamlakatimizda aholi xavfsizligini ta‘minlash, tabiiy, texnogen hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlarning zararli omillarining insonga ta‘siri jismoniy va ruxiy salomatlik sohasida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli,

turli xil kelib chiqadigan ekstremal vaziyatlarda odamning moslashish qobiliyatini o’rganish favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish, sog’liqni saqlash tashkilotlari, psixologlarni o’z ichiga olgan keng doiradagi mutaxassislarining e’tiborini jalb etadi. Ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatishni tashkil qilinishini taqqoslash, ba’zi mamlakatlarning eng yaxshi misollarini o’rganish, foydali ishlanmalari va tajribalaridan foydalanilgan holda shu kabi faoliyatga moslashtirish, shuningdek, kelgusida faoliyatdagi rivojlanish bosqichlarini bilib olish imkonini beradi [10,11].

Ruhiy-stress holatidagi insonlarga ta’sir etgan oqibatlarini bartaraf qilishda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilish uchun nazariy asoslarini o’rganish va tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1) Ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordamning o’ziga xosligi, ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam modelini tavsiflashda aniqroq namoyon bo’ladi.

Taklif etilayotgan modelda quyidagilar hisobga olingan: kasbiy faoliyati favqulodda vaziyatlarda interfaol usullardan foydalanish, psixologik yordam ko’rsatish bilan bog’liq bo’lgan turli idoralar mutaxassislarining qo’shgan hissasi; ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatuvchi psixologik xizmatlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy xujjatlar; jarohatli hodisalardan omon qolgan ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatish bo’yicha shaxsiy tajriba.

2) Ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatishning ishlab chiqilgan modeli, mazkur model uchun tanlangan, hamkorlikda to’plangan va mazmunli tavsiflangan mezonlar tufayli (kimga, qaerda, qanday holatda yordam ko’rsatiladi), Ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatishning o’ziga xos xususiyatlarini yanada yaxlit ko’rish imkonini beradi.

3) Model muayyan holatda ishlay boshlaydi (tizimning barcha komponentlari o’zaro ta’sir qila boshlaganda dinamik bo’ladi), ya’ni, mijozning holati, yordam usullarini belgilaydigan vazifalar hamda xususiyatlari va boshqalar ma’lum bo’lganida.

4) Ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatish usullarini batafsilrok tavsiflashdan iborat. Ishni davom ettirish (nazariy va uslubiy asoslar, texnikalar) kerak. Ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatish algoritmlarini ishlab chiqish, bunday ishlarni nashr etish va ularni mutaxassislariga taqdim etish katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, bolalarga ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatish tajribasini aks ettiruvchi ishlar dolzarbdir. Taklif etilayotgan interaktiv metodlar, modellarni bizning vazifalarimizga mos keladigan qo’shimcha mezon va mazmun bilan to’ldirib, ruhiy-stress holatidagi insonlarga yordam ko’rsatishga o’z o’rniga ega.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. Г.М. Андреева.- 5-е изд., испр. и доп. - М.: Аспект Пресс, 2003.
2. Бандурка А.М., Бочарова С.П., Землянская Е. В. Основы психологии.
3. Бодров В.А. Психологический стресс: развитие и преодоление. М.: ПЕР СЕ, 2006.
4. Галустова О.В. Психологическое консультирование: Конспект лекций. М.: А-Приор, 2007.
5. Крюкова М.А. Профессиограмма спасателя поисково-спасательной

службы МЧС России. М.: Изд-во МЧС России, 2000.

6. Осухова Н.Г. Психологическая помощь в трудных и экстремальных ситуациях: Учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений.

7. Порядок межведомственного взаимодействия при оказании специализированной психотерапевтической, психологической и психиатрической помощи при ЧС в городе Москве. М, 2006.

8. Психиатрия чрезвычайных ситуаций: Сб. науч. работ / Под ред. академика РАМН Т. Б. Дмитриевой. М., 2003.

9. Психология экстремальных ситуаций для спасателей и пожарных / Под общей ред. Ю. С.Шойгу. М., 2007.

10. Федунина Н.Ю. Экстренная психологическая помощь. Законы жанра // Московский психотерапевтический журнал. 2006.

11. Федунина Н.Ю. Экстренная психологическая помощь: законы жанра // Московский психотерапевтический журнал (теоретикоаналитическое издание). Специальный выпуск: экстренная психологическая помощь. М., 2006.

12. Холмогорова А.Б., Гаранян Н.Г. Психологическая помощь людям, пережившим травматический стресс. М.: ООО «АЛВИАНТ», 2007.

13. Хоф Л. Диагностика кризиса в интервью // Журнал практической психологии и психоанализа. Ежеквартальный научно-практический журнал электронных публикаций. № 4, декабрь, 2006.